



## KASB-HUNAR MAKTABLARI FAOLIYATIDAGI KAMCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH CHORALARI



*Mamajonov Qobiljon Meliboyevich*

*Shahrixon tuman 2-son politexnikumi yoshlar ishlari bo'yicha direktor  
o'rinbosari.*

***Annotatsiya:** Maqolada muallif tomonidan kasb-hunar maktablari faoliyatidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish choralari to'g'risida bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, kasb-hunar maktablari, politexnikum, o'quvchilar, direktor, kasbiy ta'lim, guruh rahbarlari.*

***Abstract:** The article describes the shortcomings in the activities of vocational schools and measures to eliminate them.*

***Keywords:** education, vocational schools, polytechnic, students, director. vocational education, group leaders.*

### KIRISH

Barchaga yahshi ma'lumki, 2024-yil 16-oktyabr kuni **“Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi Prezident Farmoni [PF-158-son] qabul qilindi. Ta'lim tizimida bir qancha o'zgarishlar ro'y beradigan bo'ldi. Ya'ni, kasb-hunar maktablari va kollejlarda tugatilib, politexnikumlar tizimi yo'lga qo'yiladigan bo'ldi. Albatta tizimda o'zgarishlar qilish payti kelgan edi. Lekin hozirgi kunda kasb-hunar maktablarida saqlanib qolayotgan ayrim kamchiliklar bartaraf etilmas ekan, kasb-hunar maktablari politexnikumga aylangani bilan



“asos”, “o’zak” saqlanib qolaveradi. Faqatgina nomi yangilanib, amalda esa “eski xammom, eski tos” bo’lib qolaveradi. Bu mening shaxsiy fikrim albatta. Quyida ushbu kamchiliklar haqida sanab o’taman:

1. Ma’lumki, kasb-hunar maktabiga har doim ham maktab 9-sinf o’quvchilarining na’munali, a’lo baholarga o’qiydigan o’quvchilari o’qishga kirmaydi. Maktablar a’lo baholarga o’qiydiganlarini saralab olib, davomat ko’rsatkichi eng yomonlarini yoki tarbiyasi yomon bezori o’quvchilarini kasb-hunar maktabiga yo’naltiradi. Buning uchun “qo’lidan keladigan barcha ishlar”ni amalga oshiradilar. Bu bilan barcha maktablar shunday qiladi demoqchi emasman, lekin juda ko’p holatlarda maktablar shunday yo’l tutishi barchaga sir emas.

2. Voyaga yetmagan kasb-hunar maktabi o’quvchilarining horijga ishlash uchun chiqib ketishi, bunda kasb-hunar maktabi guruh rahbarlari va maktab ma’muriyatining qo’lidan hech narsa kelmayotganligi.

3. Umumta’lim maktablari o’z mutaxassisligi bo’yicha milliy sertifikat ololmagan, maktablardan “non topa olmagan” saviyasi ancha past o’qituvchilarni kasb-hunar maktabini to’ldirayotgani ham eng katta kamchiliklardan biridir.

4. Umumta’lim maktablari va profita’limni bog’lovchi yagona raqamlashgan tizimni mavjud emasligi. Ya’ni maktabni 9-sinfni tamomlab kasb-hunar maktabining ma’lum bir yo’nalishiga o’qishga kirgan o’quvchini maktab bazasidan avtomatik o’chirilmasligi.

5. Kasb-hunar maktablarida o’qiyotgan yoki tamomlayotgan o’quvchilarni innovatsiyon ixtirolarini yetarli darajada rag’batlantirilmasligi.

**Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi choratadbirlar amalga oshirilishi kerak:**

1. Politexnikumlarga qabul jarayonlarida shaffoflik ta’minlanishi kerak. Ya’ni 9-sinf o’quvchilarini Politexnikumga jalb qilishdagi targ’ibot jarayonida ota-ona va o’quvchi hamda targ’ibotchi ustoz uchrashuvi holis tashkil qilinishi, bunda maktab ma’muriyati va 9-sinf rahbarlari tomonidan ota-onaga bosim yoki olib qolishga



bo'lgan harakat bo'lmasligi, agar shunday harakat kuzatilsa, qonun doirasida qattiq chora ko'rilishi kerak. Maktab direktorlarini bunga ma'sulligini oshirish kerak.

2. Horijga voyaga yetmagan o'quvchilarni chiqib ketishida davlat bojxona xizmati tomonidan faqatgina ota-onaning kafolat xatigina emas, Politexnikum maxsus ruxsatnomasi yoki rozilik xatini ham joriy qilish kerak.

3. Politexnikumda ta'lim berayotgan pedogog xodimlar to'liq atestasiyadan o'tkazish va bu atestatsiyadan o'ta olmagan pedogoglarga dars soatlari berilmasligi, sifatli ta'lim beradigan, raqobarbardosh pedogoglarni ko'paytirish, bunda tanish-bilishchilik yoki korrupsiyaga yo'l qo'ygan direktorlarga nisbatan shavqatsiz jazolanishi kerak.

4. Maktab va Politexnikumni bog'lovchi yagona raqamlashgan tizimni yaratish. Ya'ni o'quvchi maktabni 9-sinfni tamomlab, politexnikumni biror yo'nalishi bo'yicha o'qishga kirsa, avtomatik xolatda maktab bazasidan o'chib ketishi va politexnikum bazasida paydo bo'lishi kerak.

5. Shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda innovatsiyon yangilik yarata oladigan ixtirochi o'quvchilar ham oramizda yuq emas. Shunday o'quvchilarga davlat tomonidan subtsidalar berish va ularni ixtirolarini ommolashtirish targ'ib qilish keng ko'lamda amalga oshirish kerak. Xar bir yangilik uchun eng kamida 50 mln dan boshlab subtsidalar ajratish va buni amalga oshirgan politexnikumlarni munosib taqdirlash kerak.

## XULOSA

Yuqoridagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish choralari haqidagi fikrlar bu mening shaxsiy fikrim. Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, ta'lim tizimida o'rta bo'g'in hisoblangan politexnikumlar nufuzini oshirish uchun yuqoridagi kichik kamchiliklarga katta e'tibor qaratilsa, albatta bu o'z samarasini bermasdan qo'ymaydi.